

THE STUDY OF POETIC FIGURES IN SECONDARY SCHOOLS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA BADIY SAN‘ATLARNI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘RGANISH

Raxmanov Erkin Vaxobovich*

* Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi (O‘zbekiston)

Abstract. Nowadays, for objective and subjective reasons, teachers of Uzbek language and literature in secondary schools face certain difficulties in teaching classical literature. In this regard, it is necessary to apply modern teaching methods in the study of Uzbek classical literature and, in particular, the study of poetic figures. In the classical literature of the East, the role of poetic figures in enhancing artistry is invaluable. Therefore, in order for a modern reader to read with interest the priceless heritage of our ancestors, it is necessary, first of all, to understand what he has read and catch the artistic techniques used in these works. As objects of research, several poetic figures were taken, which were used in their work by our classical poets, as well as methods such as the associative method, the method of three correct and one incorrect answers, lessons in the form of the game “Zakovat”, verbal representations.

Keywords. Classical literature, poetic figures, fahria, taksir, talmeh, iykhom, associative method, the method of three correct and one incorrect answers, the game “Zakovat”, verbal representations.

Annotatsiya. Bugungi kunda obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko‘ra, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari mumtoz adabiyotni o‘qitishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu boisdan o‘zbek mumtoz adabiyoti, jumladan, she‘riy san‘atlarni o‘rganishda zamonaviy ta‘lim usullaridan foydalanisimiz zarur. Sharq mumtoz adabiyotida badiiylikni oshirishda she‘riy san‘atlarning o‘rni beqiyos. Demak, hozirgi zamon o‘quvchisi ajdodlarimiz bebaho merosini sevib mutolaa qilishi uchun, avvalo, uni tushunishi hamda mazkur asarlarda qo‘llanilgan badiiy san‘atlarni ilg‘ashi zarur. Tadqiqot ob‘ekti sifatida mumtoz shoirlarimiz o‘z ijodlarilarida foydalangan bir-nechta she‘riy san‘atlar olingan hamda **Assotsiativ usul**, uchta to‘g‘ri bitta noto‘g‘ri usuli, “Zakovat” o‘yini ko‘rinishidagi darslar, So‘zli tasavvurlar singari metodlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar. Mumtoz adabiyot, she‘riy san‘atlar, faxriya, taqdir, talmeh, iyhom, assotsiativ usul, uchta noto‘g‘ri, bitta to‘g‘ri; “Zakovat” o‘yini, so‘zli tasavvurlar.

Kirish. Hech kimga sir emaski, obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko‘ra, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari mumtoz adabiyotni o‘qitishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi, ya‘ni asarlarni o‘qib, tushunish (lug‘at bilmaslik), aruz vazni, badiiy san‘atlar va tasavvuf falsafasi.

Obyektiv sabab sifatida o‘zbek tilining asrlar davomida juda ko‘p marotaba o‘zgarishga uchraganini keltirish mumkin. Masalan, mutaxassis emas, adabiyotdan yiroq bo‘lgan istalgan tojik xalqi vakili Sa‘diy yoki Ro‘dakiyni o‘qib tushuna oladi, chunki fors-tojik tili o‘zbek tilidan farqli o‘laroq ming yildan buyon ham deyarli o‘zgarmagan.

Subyektiv sabab esa, har bir mutaxassisning o‘z faniga sovuqqonlik bilan qarashi, deb aytilish mumkin.

Bundan tashqari, Sho‘rolar mafkurasi milliy til va adabiyotlar taraqqiyotini sun‘iy o‘zanga burib yuborib, ularning mahsullarini umrboqiylikdan deyarli mahrum qilayozdi. Negaki milliy badiiy qadriyatlarni mensimaslik qatorida milliy mumtoz adabiyotshunoslik nazar-e‘tibordan soqit qilindi. Rus-yevropa adabiyotshunosligi, adabiyot nazariyasi o‘rta va oliy maktablarimizda asosiy o‘rinni oldi. XX asrning 70-yillarigacha “Ilmi sanoe” haqida hech kim og‘iz ocholmasdi. Undagi badiiy tasvir vositalari xususida so‘z borsa, ular formalistik, sxolastik adabiy unsurlar sifatida qoralanardi. Hatto, sho‘ro davrida nashr etilgan mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlari ham birinchi emas, beshinchi bobdan boshlab chop etilardi. Ya‘ni sharq mumtoz adabiyoti an‘anasiga muvofiq asar boshida keltiriladigan Alloh hamdi va Payg‘ambar (s.a.v.) na‘t (hamdu sano)i olib tashlanar edi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham tariximizning mana shu kabi og‘riqli nuqtalari to‘g‘risida kuyunib gapiradilar: “O‘zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O‘zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to‘siq va sinovlarni o‘z kuchi va irodasi bilan yengib o‘tishga qodir, deb baralla

aytishga to'la asos beradi. Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz" [1, 5]. Mustaqillik sharofati bilan, mumtoz adabiyot, shu jumladan she'r san'atlarini to'laqonli tadqiq etish uchun keng yo'l ochildi. Demak, har bir o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisi ajdodlarimizning bebaho merosini chuqur o'rganib, uni kelajak avlodlar ham sevib mutolaa qilishlari uchun tinim bilmay harakat qilmoqlari zarur.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Sharq mumtoz adabiyotida badiiylikni oshirishda she'riy san'atlarning o'rni beqiyos. Demak, hozirgi zamon o'quvchisi ajdodlarimiz bebaho merosini sevib mutolaa qilishi uchun, avvalo, uni tushunishi hamda mazkur asarlarda qo'llanilgan badiiy san'atlarni ilg'ashi zarur.

Tadqiqot ob'ekti sifatida mumtoz shoirlarimiz o'z ijodlarilarida foydalangan bir-nechta she'riy san'atlar olingan hamda **Assotsiativ usul**, Uchta to'g'ri bitta noto'g'ri usuli, "Zakovat" o'yini ko'rinishidagi darslar, So'zli tasavvurlar singari metodlardan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiasi"ning 42-maqsadi maktab darsliklarini jahon standartlari darajasiga yetkazishga bag'ishlangan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish yo'lida keng ko'lamli ishlar boshlab yuborilgan. Barcha fan darsliklari tamomila o'zgacha metodikalar asosida qayta nashr etilmoqda. Avvalgi darsliklarimizda ko'proq fundamental, nazariy bilim berishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, yangi darsliklarda o'quvchilarga kelajak hayotlarida kerak bo'ladigan ko'nikmalarni egallashlari asosiy maqsad qilingan. Shu bilan bir qatorda yangi darsliklarda fanlarni uyg'unlikda o'qitish, ya'ni fanlararo integratsiyaga ham urg'u berilgan. Misol uchun, ona tili darsliklarida fizika, astronomiya, texnologiya, logistika singari fan va sohalar bilan uyg'unlik o'z aksini topgan. Mumtoz adabiyotni, jumladan, badiiy san'atlarni o'qitishda ham fanlararo integratsiya, usulidan foydalansa bo'ladi. Ya'ni mumtoz adabiyotni o'rganishni tilshunoslik bilan uyg'unlikda olib borsa o'quvchilar ongida muhrlanishi osonroq kechadi. **Bunda bizga assotsiativ metod qo'l keladi.**

Assotsiatsiya – **biron nimani aytib, boshqa bir narsani yodga tushirish. Masalan: guruch, go'sht, sabzi**, zira desak, beixtiyor tinglovchi ko'z o'ngida palov to'la lagan yoki qozon namoyon bo'ladi.

Shunday assotsiatsiyalar tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikda ham mavjud. Tilshunoslikda antonim, ya'ni ma'nosi bir-biriga zid so'zlar, degan tushuncha. "Ilmi bade'"da esa mohiyatan bir-biriga qarama-qarshi san'atlar mavjud. Bular: **faxriya** hamda **taqsir** san'atlaridir.

Shoir she'rida o'z shaxsi, iste'dodi va ijodi haqida ko'tarinki ruhda so'z yuritsa, ya'ni maqtansa **faxriya** san'atini qo'llagan bo'ladi. Ijod amaliyotida faxriyaning bir necha navi kuzatiladi:

1. Shoir o'zini nozik idrokli, olim, o'zgalarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi pir-murshid va mo'tabar inson siymosida ulug'lab ko'rsatadi:

Olimi nuqtadon manam, piri hidoyaxon manam,
Shuhrati she'r bobida Mashrabi mo'tabar o'zum [2, 108].

2. Faxriya ijodkorlari ko'proq mening she'rlarim boshqa ulug' ustoz shoirlarga manzur bo'ladi, degan ma'noda maqtanishni yoqtiradilar. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur yozadi:

Irog'u fors gar etsa sening bu she'ring, ey Bobur,
Ani hifz etgusi Hofiz, musallam tutqusi Salmon [3, 45].

(Mazmuni: Ey Bobur, agar sening bu she'ring Irog va fors viloyatlariga borsa, uni Hofiz Sheroziy yod olar va unga Salmon Sovajiy tan bergan bo'lardi).

3. Shoir o'z she'rlari tarqalgan shahar va hududlarning kengligi bilan maqtansa ham faxriya navlaridan birini qo'llagan bo'ladi:

Yolg'uz Hiriya yo'qkim, aning zulfi vasfida,
She'ring shiori, Lutfiy, Xitou Xo'tanda bor [4,102].

(Mazmuni: ey Lutfiy, yor zulfi vasfida yozilgan she'rlaring shuhrati faqat Hirotdagina emas, Xito (Uyg'uriston) va Xo'tanda ham tarqalgandir).

4. Mavlono Lutfiy o'z ijodiy qudrati-sehrsozligini, yozgani hukmdor Ulug'bek mirzo Kobuliyga ma'qul bo'lishini qayd etgani ham e'tiborga molik faxriyalar sirasiga kiradi:

Sehr qilgay so'zda Lutfiy sohiri Kashmirtek,
Durri nazmig'a quloq gar solsa mohi Kobuliy [4, 306].

5. Hazrat Alisher Navoiy faxriya qo'llagan bir baytida olamda o'zining nodirligi va Nizomiy Ganjaviy singari she'riyatda qodirligini izhor etgan:

Falak ko'rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire [5, 6].

6. Faxriyaning favqulodda usullaridan biri (aftidan ta'sirchanlikni kuchaytirish va kitobxon maylini qozonish uchun shunday qilinadi) o'z shaxsi va ijodini o'zga shoir shaxsi va ijodidan ustun qo'yishda kuzatiladi:

Lutfiy kalomi etsa Samarqand ahlina,

Amudin o'tmas edi Xo'jandiy safinasi [6, 258].

Bu jihatdan ayniqsa Alisher Navoiyning quyidagi faxriyali bayti diqqatimizni tortadi. Chunki taxallusi ma'nosini "pichoqchi" deb izohlaydigan shoirimiz Sakkokiy haqida muallif o'ta qaltis fikr yuritgan:

Navoiy nazm aro tig'i zaboning o'yla surdikim,

Pichoq topmas uyattin o'zni o'turmakka Sakkokiy [7,423].

7. Shoir boshqa shoirga nisbatan o'z iste'dodi yuksakligini da'vo qilar ekan, bunda u o'z hukmdori ulug'ligini ham inobatga oladi. Sul-tonxon To'raxo'ja Ado quyidagi shu navli faxriyasida o'zini Alisher Navoiydan va Amir Umarxonni Sulton Husayn Boyqarodan ustunligi da'vosi bilan chiqadi:

Gar Navoiydin Ado so'zini o'tkarsa ne tong,

Shah Umar afzalmu yo Sulton Husayn Boyqaro?

Tasniflar xilma-xilligi shoirona faxrlanish usullari juda ko'pligini ko'rsatib turibdi. Zamonaviy shoirlarimiz ijodida ham faxriya san'ati uchrab turadi. Qahramon shoir Erkin Vohidov "O'zbekim" qasidasida tanti o'zbekona g'ururni ifodalovchi faxriya yaratgan:

Qayga bormay, boshda do'ppim,

G'oz yurarman gerdayib...

Erkin o'g'lingman, qabul et,

O'zbekim, jon o'zbekim [8, 203].

Taqsir san'atini faxriya san'atining aksi – teskarisi desa bo'ladi. Faxriyada shoir o'z iste'dodi, uquvi va ijodiy shuhrati bilan maqtanadi. Taqsir san'ati esa, aksincha, shoirning o'zini uquvsiz, gunohkor, kam bilimli, qobiliyatsiz qilib ifodalash usulidir.

Taqsir san'ati mohiyatidan va shu san'atning she'rdagi xizmatidan xabardor kitobxon shoir tavoze'siga – o'ta kamtarligiga qoyil qoladi.

Mazkur san'atning barcha adabiyot o'qituvchilari biladigan va har yili "Til bayrami"ga bag'ishlangan tadbirlarda foydalanadigan bir misolini keltiramiz:

Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,

Til bilmaganidin oni bag'ri to'la qondur [16].

Avaz O'tarning mash'hur g'azali maqta'sini taqsir san'atining ajoyib namunasi, desak, adashmaymiz.

Odatda mumtoz shoirlarimiz donishmand va mutafakkir bo'ladilar. Zokirjon Furqatday barkamol kishi o'z she'rida "jahl zindonida qoldim" deb zorlanadi:

Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,

O'zimni jahl zindonig'a soldim [9, 184].

Albatta o'quvchi bu san'at ta'sirini baytda sezganida shoir fikriga qo'shilmaydi: Furqatni ilmdan bebahra qolgan johil deb hisoblamaydi; u bu usulni shoirona kamtarlik tarzida qabul qiladi. Darhaqiqat, Furqatday bir umr ilm o'rganishga ishtiyoqmand kishilar kam bo'lgan: uning "Sarguzashtnoma"sini o'qisak, xoh Qo'qon, xoh Marg'ilon, xoh Toshkentda bo'lmasin, Furqatni biror ustoz ko'magida biror asarni o'rganish jarayonida ko'ramiz.

Muhammad Solih "Shayboniynoma" dostonida o'zini "tolih" (yomon) deydi:

Laqabi Solihu, o'zi – tolih,

Nur Said o'g'li Muhammad Solih [10, 32].

Mavlono Ogahiy kabi donishmand – shoir, tarjimon, tarixchi olim bir g'azalida o'zini ilmdan bebahra kishi sifatida talqin etib, taqsir san'atiga murojaat etgan:

Ilmdin bebahra el holini bilmak istasang,

Ogahiyning zor holin bilgil istishhod anga [11, 71].

Mumtoz shoirlarga xos bo'lgan bunday san'atga murojaat qilish an'anasi zamonaviy shoirlarimiz tomonidan muvaffaqiyatli ravishda davom ettirilmoqda. Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ham taqsir san'ati bilan ziynatlangan baytlar bitganlar. E.Vohidov bir she'rida o'z shoirligidan tonadi, shoirligim yolg'on deydi:

Mening shoirligim yolg'ondir, ammo,

Fuzuliy she'riga oshiqligim rost [8, 73].

Kitobxon esa shoimi ham shoir, ham Fuzuliy muxlisi sifatida sevadi. A.Oripovdan:

Men-ku she'rni to'qimoqqa sal-palgina yarayman,

Lekin sensiz yig'lab o'tgum Samad Vurg'un misoli [12, 137].

Holbuki Abdulla Oripov she'riyati bilan butun bir avlod tarbiyalanib, yangi intellektual poeziyasidan bahra olgan.

Yuqoridagi satrlardan amin bo'ldikki, shoirlar mohiyati qarama-qarshi bo'lgan ikkala san'atdan foydalanganlarida ham, asosan, o'zlarining kamtarligiga ko'proq urg'u berganlar.

Uchta to'g'ri bitta noto'g'ri usuli [17]

Uchta to'g'ri bitta noto'g'ri metodidan o'tilgan darsni mustahkamlashda foydalanish maqbulroq. Mazkur metod qo'llanilganda, sinfdagi o'quvchilar guruhlariga ajratiladilar. Har bir guruhga to'rt varaqdan qog'oz beriladi. Va har bir guruh varaqlarga badiiy san'atlardan uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri misol yozib chiqadilar.

Masalan, Talmeh san'atini o'rganishda, uchta to'g'ri misol:

Usmon Azim:

Jonim, bir dahshatni ammo bilmaysiz,
Bunda Hamlet ham yo‘q, Alpomish ham yo‘q [13, 311].

Alisher Navoiy:

Tark etib savdo, aning savdosig‘a tushmish ulus,
Kirgali Yusuf jamolim sayr uchun bozorg‘a [14, 365].

Erkin Vohidov:

Ilming yuksalguncha Beruniy qadar,
To Alisher qadar yetguncha she‘ring [8, 36].

Bitta noto‘g‘ri:

Atoyidan:

Falaktin o‘tkarurman mehning o‘qin,
Desangkim: “Qoydasen, oyo, Atoyim?” [15, 384]

Ma‘lumki, shoir yoki adib gap, bayt va misrada quyidagi holatlarda talmeh san‘atini qo‘llaydi:

- biror asotir qahramoni ismi sharifi aytilgan yoki u bilan bog‘liq voqea-hodisaga ishora qilinganda;
- biror tarixiy shaxs ismi sharifi yoki unga bog‘liq voqea-hodisaga ishora qilinganda;
- biror adabiy qahramon ismi sharifi yoki unga aloqador voqea-hodisaga ishora qilinganda;
- payg‘ambarlar, aziz-avliyolar yoki diniy arboblarning ismi sharifi zikr etilgan yoki ularga daxldor biror voqea ishora qilinganda;
- “Qur‘on”ning biror oyatiga ishora qilinganda;
- Muhammad alayhissalomning biror hadislariga ishora qilinganda;
- voqea yoki hikoya talmehi.

Biz yuqorida keltirgan uchta to‘g‘ri misolda, adibdan avval yashagan afsonaviy yoki tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan. Atoy g‘azalining maqta‘ida esa, barcha mumtoz shoirlar g‘azallarida bo‘lgani kabi, shoirning taxallusi berilgan. Ba‘zi o‘quvchilar buni farqiga bormay, toyi baytini ham talmehga misol, deb o‘ylab, “to‘g‘ri” deyishlari mumkin. Ko‘ryapmizki, mazkur usul o‘quvchilar badiiy san‘atlarni o‘rganishda hamda bilimlarini mustahkamlashda qo‘l kelishi mumkin. Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko‘nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o‘rgatadi, o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi. Materialni o‘zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O‘qituvchiga fikrlar aniqligi va to‘g‘riligini kuzatish, mashqni o‘tkazish uchun vaqtni mo‘ljallab olish qiyin, chunki o‘quvchilarda ko‘pincha fikrlarni aniq ifodalash ko‘nikmasi mavjud bo‘lmaydi.

“Zakovat” o‘yini ko‘rinishidagi darslar [17]

Bu mashg‘ulotni bob yakunida takrorlash darsi sifatida tahlil qilish mumkin. Sinf 6ta guruhga bo‘linadi va oldindan tayyorlab qo‘ygan topshiriqli konvertlarni (yoki kartochkalarni) guruh a‘zolari navbat bilan olishadi. Shundan so‘ng guruhlar 10 minut davomida o‘zlarigatushgan topshiriqlarni bajarishadi va guruh javoblarini e‘lon qilish uchun bir o‘quvchini tanlashadi (yoki guruh sardori javob beradi). Har bir guruhda bir nechta savoldan iborat topshiriqli beriladi. O‘qituvchi har bir to‘g‘ri javob uchun ball qo‘yadi. Agar biror savol-topshiriqqa noto‘g‘ri javob bo‘lsa, boshqa guruhlar to‘g‘ri javobni berishlari mumkin, bu holda, javob bergan guruhga ball qo‘yiladi. Shu tariqa har bir guruh o‘ziga berilgan topshiriqli bo‘yicha taqdimotini o‘tkazadi, boshqa guruhlar esa ularni to‘ldirishlari va noto‘g‘ri javoblarni to‘g‘rilab ball olishlari mumkin. Natijada bir soatlik darsda katta bir bo‘lim, bob bo‘yicha o‘tilgan o‘quv materialini takrorlab, o‘rgangan bilimlarini mustahkamlab olish va hamma o‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb qilib ularning darsda faol bo‘lishlariga erishish mumkin. O‘quvchi soni oz bo‘lgan sinflarda esa sinfni guruhlariga bo‘lmasdan balki 3ta qator o‘rtasida musobaqa tarzida ham o‘tkazish mumkin. Bu holda qatorlarga 2 martadan topshiriqli kartochka berish mumkin (6ta kartochka tayyorlanadi va har bir qatorga navbat bilan 2 martadan beriladi). Bu mashg‘ulotni boshqa fanlarga ham moslashtirib o‘tkazish mumkin.

Misol uchun, o‘quvchilarning zehnini o‘tkirlash maqsadida omonim so‘zlardan foydalanishga asoslangan **iyhom** san‘atidan misollar yozilgan kartochkalardan foydalanish mumkin:

Lutfiy atoqli otdan boshqa so‘z yasash namunasini talaffuzni o‘zgartirish – xalq ijodiga xos usulda iyhom san‘atini yaratish tajribasini amalga oshirgan:

Aqiq urning qoshida nozuk ermas,
Ne yaxshilik bor ul asli **Yamanda?** [4, 224].

Ikkinchi xil o‘qish:

Ne yaxshilik bor ul asli **yomonda?**

So‘zli tasavvurlar [17]

- O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling (Masalan: Tazod):

Hamid Olimjonning “Jangchi Tursun” balladasidan:

Tog‘day og‘ir qulaydi
Qush singari yengil tan.

- O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq (antonim, sinonim, oq-qora, kecha-kunduz, og‘ir-yengil).

▪ Birona soʻzni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada oʻquvchilar dastlabki soʻz bilan tasavvur qiladigan turli soʻzlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil boʻladi.

▪ Mavzu oʻrganib boʻlingandan soʻng har bir oʻquvchidan ular ushbu mavzu boʻyicha nima deb oʻylashi yoki his qilishini bir soʻz bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli boʻlgan soʻzni misol keltirishni soʻrang. Sinf aylanib, bunday soʻzlarni yigʻib chiqing. Bir yoki ikki nafar oʻquvchilardan ushbu soʻzlarning roʻyxatini tuzishni iltimos qiling.

Ushbu usul mavzuni oʻrganish jarayonining boshida oʻquvchilar mavzu boʻyicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – oʻquvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qoʻllanilishi mumkin. Bunday usul oʻquvchilarga oʻzlarining shaxsiy rivojini koʻrishga, sizga esa – siz berayotgan taʼlim sifatini baholashga yordam beradi. Mashq uchun ajratilgan vaqtga qatʼiyan amal qilish lozim. Jarayonning choʻzilishi mashq mohiyatini oʻzgartirishi mumkin.

Munozara. Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan, oʻzbek mumtoz adabiyotini oʻrganishda nafaqat oʻquvchilar, balki oʻqituvchilar ham muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotganligini yuqorida tilga olgan edik. Shuningdek, sheʼriy sanʼatlarni oʻrganishda ham bu kabi qiyinchiliklar vujudga keladi.

Mazkur maqolada keltirilgan usullar umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarga mumtoz shoirlarni qoʻllagan sheʼriy sanʼatlarni tushunishga yordam berishiga umid qilamiz.

Shu bilan birga taʼkidlash zarurki, biz keltirgan usullarning afzalliklari bilan bir qatorda, baʼzi qiyinchilik tugʻdiruvchi tomonlari ham mavjud. Misol uchun “Uchta toʻgʻri, bitta notoʻgʻri” metodi afzalliklari sifatida quyidagilarni aytish mumki: kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish koʻnikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga oʻrgatadi, oʻqituvchiga oʻquvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Qiyinchiligi esa, materialni oʻzlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. Oʻqituvchiga fikrlar aniqligi va toʻgʻriligini kuzatish, mashqni oʻtkazish uchun vaqtni moʻljallab olish qiyin, chunki oʻquvchilarda koʻpincha fikrlarni aniq ifodalash koʻnikmasi mavjud boʻlmaydi.

Shunday boʻlishiga qararamay, oʻzbek mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodini oʻrganishda bu usullar oʻqituvchilar uchun ancha yengillik yaratadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Mirziyoyev Sh.M.. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: Oʻzbekiston. 2016.
2. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. – T.: Gʻ.Gʻulom. 1990.
3. Bobur. Devon. – T.: Fan. 1994.
4. Lutfiy. Sensan sevarim. – T.: Gʻ.Gʻulom. 1987.
5. Oʻzbek adabiyoti. 10-sinf uchun majmua. – T.: Oʻqituvchi. 1993.
6. Lutfiy. Devon. Gul va Navroʻz. – T.; 1965.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami.4-jild. – T.: Fan. 1990.
8. Vohidov E. Saylanma. 1-jild. – T.: Sharq NMAK. 2000.
9. Furqat. Tanlangan asarlar. – T.: Gʻ.Gʻulom. 1975.
10. Muhammad Solih. Shaybiniynoma. – T.: Gʻ.Gʻulom. 1989.
11. Ogahiy. Asarlar. 1-jild. – T.: Gʻ.Gʻulom. 1971.
12. Oripov A. Yurtim shamoli. – T.: Yosh gvardiya. 1976.
13. Usmon Azim. Saylanma. T.: Sharq. 1995.
14. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami.6-jild. – T.: Fan. 1990.
15. Hayot vasfi.T.: Gʻ.Gʻulom. 1988.
16. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/avaz-otar-gazallar-muxammaslar-ruboiylar.htm>.
17. <https://baxtiyor.uz>.

Reviewer:

*K. Tadzhev
Candidate of Philology
Associate Professor
Gulistan State University*

AUTHOR(S):

Author – Raxmanov Erkin Vaxobovich, erkin.raxmonov.78@mail.ru

Corresponding author – Raxmanov Erkin Vaxobovich, erkin.raxmonov.78@mail.ru